

ERON TARIXSHUNOSLIGIDA TURONNING MIS-TOSH DAVRI XO'JALIGI, HUNARMANDCHILIK VA IJTIMOY HAYOTI MASALASI

Xojamberdiyev E. Sh.

Tarix instituti mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19043997>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron olimlarining Turonning mis-tosh davri xo'jaligi, hunarmandchilik va ijtimoiy hayoti masalasiga oid ilmiy yondashuv va qarashlari milliy, sovet davri va yevropalik tadqiqotchilarning mavzuga doir ilmiy natijalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Gyoksur, Namozgoh II, Namozgoh III, Tell Iblis, Ilginli, Mundigak, Siston, Balujiston, Shahri So'xta, Kvetta, Tepai Hisor.

Eron olimlari eneolit davri Turon jamoalarining xo'jaligi va ijtimoiy tuzilmasini ham chuqur tahlil qilganlar. Seyid Sajjodiy Gyoksur aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, mis eritish texnologiyasidan xabardor bo'lsa-da, tosh va suyak qurollaridan keng foydalanishni davom ettirganini ta'kidlaydi [1:216]. Namozgoh II davrida rang-barang kulolchilikning, Namozgoh III davrida esa "Gyoksur uslubi"ning paydo bo'lishini u ikki qismli xumdonlarning kashf etilishi bilan bog'laydi [1:216]. Unga ko'ra, bunday xumdonlar yuqori haroratni ta'minlab, kulollarga yangi turdagi sir va bo'yoqlardan foydalanish imkonini bergan. Ushbu yangilik migratsiya natijasi emas, balki, tub ixtirolar samarasidir [1:217].

Seyid Sajjodiy Gyoksur aholisining moddiy madaniyati, iqtisodiy xo'jaligi va texnologik yutuqlarini, xususan metalsozlik, asbob-anjomlar ishlab chiqarish va kulolchilik san'atidagi o'ziga xos jihatlarga to'xtalib, mazkur masalada quyidagilarni keltirib o'tgan:

Dehqon va chorvadorlar asosan mol ayirboshlash bilan shug'ullanganlar. Hunarmandlar esa misdan yasalgan bezak buyumlari, bolta va pichoq kabi asboblarni ishlab chiqarganlar. Garchi odamlar metall eritish bilan tanish bo'lgan bo'lsalar-da, tosh, suyak va loydan foydalanishni davom ettirganlar.

Seyid Sajjodiy ta'kidlashicha, kundalik turmushda donni maydalash va un tayyorlash uchun maxsus tosh qurollardan foydalanilgan. Chaqmoqtoshdan keskich, tig', o'roq, o'q uchlari va boshqa turli xil buyumlar yasalgan. Ishlab chiqarishda asosan suyakdan yasalgan asboblar va hayvon terisi keng qo'llanilgan.

Xo'jalikda kulolchilik ham muhim o'rin tutgan. Bu davrga oid sopol idishlar oldingi davrga nisbatan sifatliroq bo'lsa-da, ular hali ham qo'lda yasalgan va ibtidoiy pechlarda pishirilgan. Oddiy kundalik idishlar bilan bir qatorda, geometrik bezakli nafis namunalar ham topilgan. Garchi tub hunarmandlarning mahorati hali yuqori darajada bo'lmagan bo'lsa-da, ular yupqa va sifatli idishlar yasashga muvaffaq bo'lganlar. Ilk sopol naqshlari sodda bo'lib, Joytun davri kulolchiligiga xos bo'lgan. Oddiy yoki uchburchak shaklidagi geometrik bezaklar yorqin qizil fonda qora rangda tasvirlangan. Bu turdagi kulolchilik ilk eneolit davrida butun Turkmaniston janubi bo'ylab tog' etaklaridan to Tajan vodiysidagi Gyoksur hududlarigacha keng tarqalgan [1:219].

O'rta eneolit davrida Turkmanistonda monoxrom sopol idishlar bilan bir qatorda qora va qizil rangda bezalgan naqshli rang-barang kulolchilik turi ham paydo bo'lgan. Seyid Sajjodiy kulolchilikdagi mazkur yangi uslubning paydo bo'lishini qo'shni madaniyatlar ta'siri deb baholaydi. Ushbu rang-barang bezak namunalari Eron janubi-sharqidagi Tell Iblis makonidan ham topilganini ikki mintaqa o'rtasidagi aloqalarga dalil sifatida keltiradi.

Seyid Sajjodiy Turkmanistondagi Ilginli manzilgohidagi turar joylarda aniqlangan loydan yasalgan kursilar xususida ham o'z fikrlarini bildirib o'tadi. Uning ta'kidicha, asosiy xonalarning ichida loydan yasalgan qizg'ish tUSDagi pastak o'rindiqlar mavjud bo'lib, ularning tag qismida mahkamlovchi asoslari bo'lgan. Ushbu asoslar o'rtasidagi bo'shliq qora rangga bo'yalgan. Muallif ushbu loydan yasalgan o'rindiqlar aslida yog'ochdan tayyorlangan kursilarning nusxalari degan fikrni bildiradi. Ushbu fikrga tayanilsa, Turon janubidagi eneolit davri jamoalari yog'ochdan uy jihozlari va boshqa anjomlar yasashni ham puxta o'zlashtirishgan deb taxmin qilish mumkin. Seyid Sajjodiy Ilginlidagi eneolit davri ibodatxonalari butun Yaqin Sharq mintaqasida o'z turiga ko'ra noyob ekanini tan oladi. Ibodatxonalar maydonining kattaligi, bezash uslubi, sopol o'rindiqlar, erkak siymosidagi haykalchalar va metall buyumlar Ilginlini qo'shni mintaqalardan ajratib turuvchi betakror xususiyatlari sifatida baholaydi [1:221].

Muallif Ilginli manzilohidagi ibodatxona devorlaridagi rasmlarni alohida e'tirof etgan. Ushbu rasmlar manzilgoh aholisining ranglar tanlashda mohir bo'lganligi belgisi deb talqin qilgan. Jumladan, ibodatxona pollari asosan qora rangda, o'rindiqlar esa qizil, devorlarning pastki xoshiyalari ham qora rang bilan ajratib bo'yalganligiga e'tibor qaratgan. Yuqoridagi xususiyatlarga asoslanib Ilginli rassomlari sgraffitto usulini kashf qilganliklarini tasdiqlagan. Unga ko'ra, devorlar oldin loy bilan suvalgan va ustidan qora rangga bo'yalgan. Keyin noziklik bilan sayqal berilgan. Odatda, qora bo'yoq suv tuproq va ko'mir aralashmasidan tayyorlangan.

Tadqiqotchi shuningdek, Tajan daryosi del'tasida murakkab sug'orish tizimlarining paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Uzunligi 3 km gacha bo'lgan sun'iy kanallarning mavjudligi bu hududdagi dehqonchilik jamoalarining muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan. Olim bu bilimlarni mintaqaga kelgan yangi ko'chmanchilar olib kelgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi, ammo buni sovet olimlari ta'kidlaganidek, keng ko'lamli migratsiya emas, balki yangi texnologiyalarni o'zlashtirgan kichik guruhlarning harakati sifatida baholaydi [1:222]. Unga ko'ra, o'rta eneolit davriga oid bolalar qabrlarining kattalarnikiga qaraganda boyroq ekanligi (masalan, Qoratepadagi "munchoqli qiz" qabri), shuningdek, mudofaa devorlari va ibodatxonalarning paydo bo'lishi jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish boshlanganidan va murakkab ijtimoiy tuzilmalar shakllanganidan dalolat beradi.

Seyid Sajjodiy fikricha, Turon bronza davri jamoalarining dafn marosimlaridagi o'zgarishlarni ham diqqat bilan tahlil qiladi. Gyoksurda bir vaqtning o'zida ikki xil turdagi – oddiy chuqur qabrlar va gumbazli jamoaviy qabrlarning (katakomba) mavjudligini mahalliy jamiyatga to'liq singib ketmagan va o'z an'alarini saqlab qolgan yangi xalqlarning kelishi sifatida izohlaydi. Biroq, buni keng miqyosli bosqin sifatida emas, balki mahalliy aholi va kichik guruhlarning o'zaro birgalikda yashashining natijasi deb biladi. Unga ko'ra, qabrlardagi ashyolarning mahalliy xususiyatga ega ekanligi bu ikki guruh o'rtasida chuqur iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar bo'lganini ko'rsatadi [1:223].

Lebof Xonikiy Turonning so'nggi eneolit davri xususida quyidagi umumiy qarashini keltirib o'tadi. Unga ko'ra, so'nggi eneolit oxiriga kelib, Janubiy Turkmaniston, Eron platosi va butun Yaqin Sharq bilan keng aloqalar o'rnatgan edi. Bu aloqalarning eng yorqin dalillarini olim Eronning janubi-sharqidagi Siston va Balujiston (Shahri So'xta) va Pokistondagi Kvetta vodiysi madaniyatlari bilan o'xshashliklarda ko'radi. Uning ta'kidlashicha, Gyoksur madaniyati vakillarining bir qismi iqlimiy o'zgarishlar (Tajan daryosi o'zani o'zgarishi) sababli janubi-sharqqa, jumladan, Afg'onistondagi Mundigak va Pokistondagi Kvettaga ko'chib o'tgan. Bu esa Gyoksur madaniyatining yo'qolib ketmay, balki Hind-Eron madaniy mintaqasidagi yangi

tamaddunlar, xususan, Shahri So'xtaning ilk shahar madaniyati shakllanishiga turtki bo'lganini anglatadi[2:542].

Xasan Foziliy Erondagi Tepai Hisorda maishiy turar-joylardan tashqari mis va lazuritni qayta ishlashga ixtisoslashgan alohida hunarmandchilik mavzolari bo'lganini qayd etadi. Muallif mis va lazurit Tepai Hisorga milloddan oldingi 4 ming yillikda Afg'onistonning Badaxshon konlaridan keltirilgani hamda shu yerda qayta ishlanib Eronning g'arbiy mintaqalariga tarqalganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Tepai Hisor aholisining iqtisodiy hayoti, ovqatlanish ratsioni va umumiy qabrlarga dafn etish an'anasi Turon manzilgohlari bilan o'xshash deb hisoblaydi [3:146].

Xasan Foziliyning xulosasiga ko'ra, o'rta va so'nggi eneolit davrida Uruk va Suzaning g'arbiy va markaziy Eronga qisman ta'siri kirib borgan bir vaqtda, Janubiy Turkmaniston jamoalari mudofaa devorlari, mahobatli darvozalar, ixtisoslashgan hunarmandchilik mavzolariga ega bo'lgan yirik shahar tipidagi manzilgohlarga (Namozgoh, Oltindepe, Gyoksur) aylangan [3:147]. Metall, yarim qimmatbaho toshlar va dengiz chig'anoqlari savdosi ushbu shaharlashuv jarayoniga kuchli turtki bo'lgan. Xasan Foziliy Tepai Hisor va Janubiy Turkmaniston eneolit davri jamoalarining kundalik mashg'uloti, tirikchilik manbasi va ovqatlanish ratsionini ham qiyosi tahlil qilgan. Unga ko'ra, Hisor aholisi dehqonchilikda bug'doy va arpa yetishtirish, chorvachilikda qoramol, qo'y, echki va cho'chqa boqish, ovchilikda jayron, bug'u va yovvoyi qushlarni ko'p ovlash bilan shug'ullangan. Shunday bo'lsa-da, Tepai Hisor odamlari organik qoldiqlarining laboratoriya tahlillari bu joy aholisida to'yib ovqatlanmaslik belgilari aniqlaganini qayd etadi[3:144].

Hasan Foziliy bu davrda Eronning shimoli-sharqiy qismidan Turkmaniston janubigacha, Kopetdog' shimoli, Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan Tajan daryosi vodiysigacha cho'zilgan tog' oldi tekisliklari jamoalari qishloq xo'jaligi, kulolchilik, tosh sanoati va metallsozlikdagi ilg'or texnologiyalarga ega bo'lganligini alohida qayd etadi. Shuningdek, tabaqalashtirilgan dafn usuli, tamg'a va muhrlar ijtimoiy bo'linish va boshqaruv belgilari sifatida hisoblab, mazkur shahar ko'rinishidagi manzilgohlarga Namozgoh, Qoratepa, Oltintepa, Ilginlitepa va Gyoksur yodgoriklarini misol qilgan [4:33].

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, eronlik olimlarning qarashlari Janubiy Turkmaniston va Eron platosining eneolit davrini o'rganishda muhim tarixshunoslik ahamiyatiga ega. Ularning yondashuvi quyidagi bir necha asosiy xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Eron olimlari madaniy o'zgarishlarni tushuntirishda sovet arxeologlari kabi ko'chish omillari bilan bog'lashdek sodda yondashuvlarga qarshi chiqib, o'zaro ta'sir, savdo aloqalari va texnologik almashinuv kabi murakkab jarayonlarga urg'u beradilar. Janubiy Turkmanistonni yagona madaniy hudud sifatida emas, balki Eron platosining turli qismlari bilan aloqada bo'lgan g'arbiy va sharqiy mintaqalarga ajratib o'rganadi. Texnologik ixtirolar (xumdonlar, sug'orish) va ichki ijtimoiy tabaqalanish tub madaniy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida ko'rsatishadi. Geoksiur madaniyatining tanazzuli uning yo'q bo'lishini anglatmaydi, balki bu yer aholisining janubi-sharqqa siljishi Hind-Eron chegara hududlarida yangi va yorqin madaniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratganligini tan oladilar.

Umuman olganda, Eron tadqiqotchining qarashlari mintaqadagi eneolit davri jamiyatlarini tashqi dunyodan ajralmagan, aksincha, Yaqin Sharq kabi jahonning keng madaniy-iqtisodiy tizimining faol ishtirokchisi bo'lganligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. سید منصور سید سجادی. باستانشناسی آسیای مرکزی. جلد اول. تهران. ۱۳۹۴. ص. ۲۱۶.
2. رجبعلی لباف خانیکی. سفال نماد فرهنگی مشترک ایران و آسیای میانه. هنر ایران. تهران. ص. ۷۴۱-۷۶۴.
3. Hassan Fazeli Nashli and Roger Matthews. The Archaeology of Iran from the Palaeolithic to the Achaemenid Empire. – New York. – 2022. – P. 147.
4. Asqarov A. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 34.